


2020- yil yanvar-sentyabr oylari uchun Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida Toshkent viloyatida jami **4615,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **100,9 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar- sentyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **113,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **54,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **134,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **125,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,6 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
Toshkent viloyati	2883	3440	119,3
Nurafshon sh.	128	162	126,6
Olmaliq sh.	180	203	112,8
Angren sh.	226	263	116,4
Bekobod sh.	155	171	110,3
Ohangaron sh.	89	108	121,3
Chirchiq sh.	235	291	123,8
Yangiyo'l sh.	80	83	103,8
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	77	92	119,5
Ohangaron	63	74	117,5
Bekobod	96	100	104,2
Bo'stonliq	98	123	125,5
Bo'ka	109	100	91,7
Quyi Chirchiq	71	89	125,4
Zangiota	191	230	120,4
Yuqori Chirchiq	171	201	117,5
Qibray	255	335	131,4
Parkent	94	99	105,3
Piskent	66	78	118,2
O'rta Chirchiq	172	218	126,7
Chinoz	77	110	142,9
Yangiyo'l	133	165	124,1
Toshkent	117	145	123,9



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




Ma'lumot uchun: viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray (9,7 %), Chirchiq sh. (8,5 %) va Angren sh. (7,6 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar- sentyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **941,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar- sentyabr oylariga nisbatan **115,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,7 %** punktga ko'payib, **20,4 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,8 %** i yoki 2019- yilning yanvar-sentyabr oyiga nisbatan **136,9 %**), Qibray (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,5 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **167,0 %**), va O'rta Chirchiq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **362,7** marta ko'p) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2019- yil yanvar-sentyabr
- 2020- yil yanvar-sentyabr


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentyabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,8 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **103,6 %** ni tashkil etgan holda **2859,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,6 %** ni tashkil etdi yoki **814,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar- sentyabr oylariga nisbatan **81,5 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **123,1** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **513,1** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4492,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **845,8** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **2,7** % va **97,3** % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar- sentyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	4615,6	100,9	100,0
Nurafshon sh.	191,9	100,4	4,2
Olmaliq sh.	209,0	98,8	4,5
Angren sh.	198,3	100,2	4,3
Bekobod sh.	196,0	99,0	4,2
Ohangaron sh.	162,6	101,7	3,5
Chirchiq sh.	225,7	98,8	4,9
Yangiyo'l sh.	119,1	100,1	2,6
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	130,8	99,6	2,8
Ohangaron	129,5	100,2	2,8
Bekobod	130,8	100,4	2,8
Bo'stonliq	228,1	100,3	4,9
Bo'ka	122,9	98,7	2,7
Quyichirchiq	109,8	100,3	2,4
Zangiota	534,5	103,5	11,5
Yuqori Chirchiq	304,0	100,1	6,6
Qibray	424,0	105,1	9,2
Parkent	266,3	100,2	5,8
Piskent	141,3	100,7	3,1
O'rta Chirchiq	201,8	100,2	4,4
Chinoz	129,3	99,2	2,8
Yangiyo'l	173,6	99,7	3,8
Toshkent	286,3	102,0	6,2



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-sentyabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Zangiota
534,5


2

Yuqori Chirchiq
304,0

1

Qibray
424,0

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Bo'ka
122,9

2

Quyi Chirchiq
109,8

1

Yangiyo'l sh.
119,1

3





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70